MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Azimova Shohista Ziyodulla qizi
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
Email:*shohista940019972@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati va ularni tashkil etish metodikasi hamda zamonaviy ta’lim sharoitida takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Didaktik o‘yinlarning bolaning tafakkuri, ijodiy faoliyati va mustaqil qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri pedagog olimlar qarashlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, didaktik o‘yin, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiya, tafakkur rivoji, innovatsion metodika.

Аннотация: В данной статье научно анализируется значение дидактических игр в формировании навыков самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста, методика их организации, а также пути их совершенствования в условиях современного образования. На основе взглядов ученых-педагогов освещается влияние дидактических игр на развитие мышления, творческую деятельность и процесс принятия самостоятельных решений ребенком.

Ключевые слова: дошкольное образование, дидактическая игра, самостоятельное мышление, педагогическая технология, развитие мышления, инновационная методика.

Abstract. This article scientifically analyzes the significance of didactic games in fostering independent thinking skills in preschool children, their organizational methodology, and methods for their enhancement within modern

educational contexts. The impact of didactic games on children's cognition, creative activity, and independent decision-making processes is illuminated, drawing upon the perspectives of pedagogical scholars.

Keywords: preschool education, didactic game, independent thinking, pedagogical technology, cognitive development, innovative methodology.

Ta’lim tizimining ibtidosi bo‘lmish maktabgacha ta’lim bosqichida tarbiyalanuvchilarning yetakchi faoliyati o‘yin sanalsa-da , ushbu jarayon zamirida ta’lim va tarbiya berish borliqni anglatish mustaqil fikr yuritishga undash orqali shaxsni shakllantirish ko‘zda tutiladi. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri-mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayon ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlanishi muhimdir, chunki aynan ushbu davrda bolaning tafakkuri dunyo qarashi va bilish faolligi shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ular atrof-muhitni o‘rganishda faol qiziquvchan va izlanishga moyil bo’ladi. Bolalar ko‘proq o‘yin orqali bilim oladi, tajriba orttiradi va yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi. Shu bois pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonida o‘yin faoliyatidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa didaktik o‘yinlar bolalarning bilish jarayoning faollashtirish hamda mustaqil fikr yuritishga o‘rgatishda muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi.

“Didaktika” grekcha so‘z bo‘lib, “o‘qitish”, “O‘rgatuvchi” degan ma’nolarni anglatadi. “Didaktika” so‘zining lug’aviy tarjimasi “Ta’lim nazariyasi” demakdir. Ta’lim nazariyasi ta’lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta’lim tamoyillarini, ta’lim mazmunini, ta’lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta’lim nazariyasining asosiy mohiyati ta’limni tashkil etishdan iboratdir. Ta’limni tashkil etishda asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko’nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Didaktik o‘yinlar-bu ta’limiy maqsadga yo’naltirilgan, maxsus qoidalar asosida tashkil etiladigan o‘yin faoliyatidir. Ular bolalarda bilim olish jarayonini qiziqarli va tabiiy holga keltiradi.

Didaktik o‘yinlar orqali bolalarda: mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin jarayonida bola faol ishtirok etadi, savollarga javob izlaydi va o‘z fikrlash rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mustaqil fikrlash- bolaning berilgan vaziyatini tushunib, o‘z qarorini mustaqil ravishda qabul qila olish qobilyatidir. Didaktik o‘yinlar bu jarayonni tabiiy ravishda rivojlantiradi.

Masalan:

1.“Ortiqchasini top” o‘yini-tahliliy fikrlashni rivojlantiradi;

2.“Nima o‘zgardi?” o‘yini-diqqat va kuzatuvchanlikni oshiradi;

3.“Davomini top” o‘yini-mantiqiy tafakkurni shakllantiradi.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017- 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» asosida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim didaktikasining asoschilari Y.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy hisoblanadi. Y.A.Komenskiy va

K.D.Ushinskiyning qimmatli me'rosi o'tmish pedagoglari tomonidan maktab didaktikasini ishlab chiqishda keng foydalanilgan. Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagog sohasi bo'yicha olima A.P.Usova (1898-1965) tadqiqotlari, ta'lim prinsiplarining ahamiyati katta bo'ldi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni va xalq amaliy ijodiyoti masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Didaktik o'yinlardan foydalanish metodlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari;

- Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish uchun quyidagi metodologik yo'nalishlarni takomillashtirish zarur:

- Muammoli vaziyatlarni yaratish: O'yin jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bola tayyor javobni topish emas, balki muammoli vaziyatga duch kelib, uni tahlil qilib, o'zi yechim izlashga intilishi lozim.

- Interfaollik va faol ishtirokni ta'minlash: Bolani o'yinning shunchaki ishtirokchisiga emas, balki uni tashkil etuvchi, qoidalarini o'zgartiruvchi yoki yangi qoidalar taklif qiluvchi faol sub'ektga aylantirish zarur.

- Ijodiy yondashuvni rag'batlantirish: O'yin jarayonida bir nechta yechim variantlariga yo'l qo'yish, bolaning o'ziga xos g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

- Refleksiyani rivojlantirish: O'yin yakunida bolaning o'z harakatlari, xatolari va yutuqlari haqida fikr yuritishga, "Nima qildik?", "Qanday qildik?", "Keyingi safar nima qilsak yaxshi bo'ladi?" kabi savollar orqali o'z-o'zini tahlil qilishga o'rgatadi.

- AKTni integratsiya qilish: Raqamli didaktik o'yinlar va interfaol vositalardan foydalanish orqali o'yin muhitini boyitish va bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan muloqot qilishga o'rgatadi. O'yin qatnashchilarini rag'batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganliklari uchun ularga yetakchi rolni berish,ba'zan esa o'yinlarda foydalanilgan o'yinchoqni o'ynashga berish yoki mevalarni yeyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo'l bilan bu ishga intilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Didaktik o'yin jarayonida turli-tuman

aqliy jarayonlar faollashadi va ixtiyoriy tus oladi. O‘yin g‘oyasini tushunish va unga amal qilish, o‘yin harakatlari va o‘yin qoidalarini o‘zlashtirish uchun tarbiyachining gaplarini yaxshilab tinglash va tushunib olish zarur. O‘yindagi vazifalar diqqatni bir joyga to‘plashni, narsalarni farq qilish, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarning faolligini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Didaktik o’yinlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki bolalarni kelajakda maktab ta’limiga va murakkab hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlashning mustahkam poydevori bo’lib xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori

2. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019-y. 15-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-sonli Qarori. T.: 2016 -yil

4. F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova - Maktabgacha pedagogika darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019-y.

5. M.Marufova "Bolalarni nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi". Samarqand-2022 Ma'ruzalar matni